



NEYROLINGVISTIKANING FAN SIFATIDAGI AHAMIYATI

Qurbonova D.A.

Jizzax davlat pedagogika universiteti v.b dotsenti (PhD)

Tayanch soʻzlar: neyrolingvistika, tafakkur, nutq, lingvistika, psixolingvistika.

Ключевые слова: нейролингвистика, мышление, речь, лингвистика, психоллингвистика.

Key words: neurolinguistics, thinking, speech, linguistics, psycholinguistics.

Kirish. Neyrolingvistika psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan murakkab va mustaqil fandır. Bu uch fan lingvistik shaxsning umumiy muammolarini hal qilishda, nutq faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan miya qismlarining faoliyatini oʻrganishga xizmat qiladi :

1) tilshunoslik tabiiy tilning strukturaviy xususiyatlarini, uning fonologik, morfologik, sintaktik va boshqa har bir tashkiliy sohalarini aniqlaydi;

2) psixolingvistika kommunikativ nutqning til tuzilmalarida inson ongi tomonidan real vaqtda qayta ishlashini boshqaradigan kognitiv jarayonlarni oʻrganadi;

3) neyrolingvistika esa tildagi funksional qurilishning kognitiv qayta ishlash jarayonida mobilizatsiya qilingan miya tuzilmalari yoki neyron tarmoqlarini ruhiy jihatdan aniqlashga «ong va miya» faoliyatini tekshiradi.

Shu jihatlari bilan bu uch fan bir-birini toʻldiradi.

Asosiy qism. Rus neyropsixanalitigi T.V. Chernigovskayaning fikricha: «Bizning bilimlarimiz diagnostika, reabilitatsiya, nutqning turli funktsiyalarini tiklash uchun zarurdir. Baʼzan disgrafiya va disleksiya bilan ogʻrigan insonlar oʻz ona tillarini qayta oʻrganishga majbur boʻladilar. Odam oʻz ongini boshqarishga harakat qilishi – mumkin, ammo miya faoliyatining fiziologik va irsiy xususiyatlarini nazorat qila olmaydi. Agar odamlarning ongida psixologik nuqson mavjud boʻlsa, unda uni tuzatish yoki davolash zarur. Neyrolingvistika nutq faoliyati mexanizmlari jarayonlarini, til, tafakkur va inson ongining oʻzaro bogʻliqligini, inson nutqini yaratishga yordam beradi. ... Tilshunoslar miya

fiziologiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, nevrologik tuzilmalarning va tilning tuzilishi haqida umumiy xulosalar chiqarishlari – mumkin.»

Nutq faoliyati nazariyasida neyropsixolingvistikaning darajalanish o'rni mavjud:

1) nutqning to'g'riligi - til qoidalariga rioya qilish;
 2) nutqning tezligi - nutqni vaqtga moslashtirish;
 3) nutqning to'yinganligi - so'z boyligi va turli xil og'zaki shakllardan foydalanish;

4) nitgda adekvat tanlov - xabarning mohiyat va holatga muvofiqligini ta'minlash;

5) yaxlit matnning adekvat sintezi - matndagi gaplarning to'g'ri bog'lanishi.

Agar lingvistik shaxs ushbu ko'p bosqichli modelga har tomonlama ega bo'lmasa, uning til qobiliyati yaxshi rivojlanmagan sanaladi.

Neyrolingvistika (yunoncha *névrón* — nerv, lotincha *lingua* — til) o'tgan asrning 50-yillarning oxiri - 60-yillari boshlarida uchta fan - nevrologiya, psixologiya va tilshunoslikdan kelib chiqqan. Ushbu bilim sohasining paydo bo'lishiga insonlardagi amaliy ehtiyojlar yordam berdi.

Neyropsixologiya va neyrolingvistikaning maxsus fan sifatida vujudga kelishida A. A. Leontev, A. R. Luriya, E. S. Beyn, R. M. Boskis, E. N. Venarskaya, O. S. Vinogradova, N. A. Eysler kabi olimlarning xizmatlari katta. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida inson miyasining tizimli barqarorligi, turli sabablarga ko'ra shikastlanishi, buzilishi – afaziya kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Afaziologiya - afazi (yunoncha *a* - salbiy zarracha va *faza* - bayonot) mahalliy miya lezyonlari tufayli nutq buzilishidan aziyat chekadigan odamlarni davolash bilan shug'ullanadigan tibbiyot sohasidir

Neyrolingvistika fanining o'rganish obyektida inson miyasidagi nerv hujayralarining – neyronlarning nutq holatini tiklashdagi o'rni va so'zlarni hosil qilishdagi vazifasi turadi. « Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va chuqur o'rganilgan.»

Neyrolingvistikaning yutuqlari dastlab, amaliy muammolarni hal qilish bilan bog'liq nutq buzilishlarini tashxislash va tuzatish iborat bo'ldi. Zamonaviy neyrolingvistika obyektida tadqiqot nafaqat nutq patologiyasini o'rganishni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi, balki bu ham norma hisoblanadi.

Rus neyrolingvistikasining «otasi», taniqli psixolog va neyrofizilog Aleksandr Romanovich Luriya uni fan sohasi sifatida “Nutq faoliyatining miya mexanizmlari va til tizimida mahalliy miya shikastlaishlari bilan



yuzaga keladigan nutq jarayonlari o'zgarishlarini o'rganish»[Luriya A.R. Neyrolingvistikaning asosiy muammolari]deya ta'riflagan. Luriya A.R. neyrolingvistika atamasini XX asrning 60-yillari boshlarida ishlata boshlagan.

Miyaning tashkil etilishi va inson tabiati o'rtasidagi munosabatlari kabi ko'plab savollari neyrolingvistika doirasidagi psixologik bilimlar tafakkur asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq ong mexanizmlari, nutq jarayonlari orqali hal qilinadi.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni: sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Sezgi, idrok vositasi bilan bilib olish mushkul bo'lgan narsa-hodisalar xususiyatlarini tafakkur vositasi bilan anglashdir. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Kim yaxshi fikrlasa, u yaxshi nutq so'zlaydi. Nutq aloqasi jarayonida voqelik, narsa va hodisalar muayyan til qonuniyati va qoidalarga asoslangan holda mohiyatni, mazmunni, tabiat va jamiyatni tushunishga yordam beradi. Aks holda shunday savollar tug'iladi: Men angladim. Men tushundim. Men yaxshi tushundim. Bilmasam. Men fahmladim. Mening fahmlashimcha, bu xato. Mening fahmlashimcha, bu to'g'ri.

Yoki aksincha: Tushunmay qoldim. Bu men uchun mavhum. Bu menga qorong'u. Men anglamadim. Tushunmasam. Menga bu tushunarsiz kabi frazalar ishlatiladi.

Odatda, neyrolingvistik tadqiqotlar lingvistik, neyrofiziologik va psixologik qismlarni o'z ichiga oladi.

Neyrolingvistika boshqa fanlar bilan keng aloqadorligi bilan ajralib turadi.

1) Lingvistika va psixolingvistika (nutq so'zlash mexanizmlarini o'rganish) til materialining o'ziga tayanuvissiz birlik, til konstruktsiyasi va modellari, ularning psixologik korrelyatlariga zarar bermasdan faoliyat ko'rsatish.

2) Nevrologiya (normal va asab tizimining tuzilishi patologiyalari va funksiyalarini o'rganadi; nevrologiya bo'limlari – neyrofiziologiya, inson nutqiy xatti-harakati uchun mas'ul bo'lgan miya va asab tizimi, ularning til tizimi faoliyatidagi roli, korteksdagi nutq funksiyalarini lokalizatsiya qilish, miya va asab tizimi va boshqa tuzilmalarni aniqlash imkonini beradi.

Nevrologiya odam va hayvonlar nerv sistemasining tuzilishi hamda norma va patologik holatlardagi funksiyalari, uning filogeneza va ontogeneza» qonuniyatlari to'g'risidagi tibbiy-biologik fan bo'lib, XVI-asrda A. Vezaliy nerv sistemasini o'rganishda morfofunktsional yo'nalishni boshlab berdi. XIX-asrda nerv sistemasini mikroskopik o'rganishga asos solinadi, bu esa neyronni ta'riflashga imkon berdi.

Gistologiya, tasviriy anatomiya bilan birga neyrofiziologiya ham o‘z novbatida rivojlanib bordi. U dastavval, hayvonlar miyasining ayrim qismlarini o‘rganishga kirishildi. Bosh va orqa miyada harakat va sezgi funksiyalarini belgilovchi maxsus markazlar borligi aniqlandi. XIX-asrning 2-yarmida bosh miya vaskulyarizatsiyasi, nerv sistemasining filogenezi va ontogenezi o‘rganishda bir-muncha muvaffaqiyatlarga erishildi. XIX—XX-asrlarda I. M. Sechenov, N. Ye. Vvedenskiy, Ch. Sherrintonlar o‘tkazgan fiziologik tadqiqotlar chet elda nevrologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limoti, miyaning tuzilishi va funksiyasining shakllanishida evolyusion-genetik qonuniyatning ochilishi va boshqa XX-asrda nevrologiyaning muhim yutuqlaridan bo‘ldi.

Logopediya (logos va yun. paideia - tarbiyalash, o‘qitish) - ped. fani tarmog‘i; nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, o‘qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo‘llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta’lim va tarbiya vositasi sifatida o‘rganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII-asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tatbiq etila boshladi. XIX-asr ning 2-yarmidan bu sohaga mustaqil ravishda, ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashildi. Asta-sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi ilmiy tasavvur kengaya borib, Logopediya yo‘nalishi tubdan o‘zgardi, pedagogik mazmun birinchi o‘ringa qo‘yiladigan bo‘ldi.

3) Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik-grammatik tuzumi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyati uzviy bog‘liqligi bilan belgilanadi. Logopediya nazariy yo‘nalishi nutqdagi buzilishlarni o‘rganish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish, amaliy yo‘nalishi esa ana shu metodlarni tezroq tatbiq etib, mazkur nuqsonlar va ularni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Neyrolingvistika fani bo‘yicha dastlabki kitobni Rossiya olimi A. R. Luriya yaratdi. U kitobda 1) lingvistik bosqich; 2) neyrofiziologik bosqich; 3) psixologik bosqichni ajratib ko‘rsatdi.

So‘ng neyrolingvistik tadqiqotlarning ishonchliligi uchun olimlar nevrologiya, psixologiya, psixolingvistika, neyrofiziologiya, neyropsixologiya, logopediya, neyroxirurgiya, biofizika va biokimyo kabi fanlarga murojaat qilishdi. Inson miyasini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan tadqiqotlarda: 1) miyaning qaysi qismlari til qobiliyatiga javob beradi; 2) nutq faoliyati jarayonida



asab tizimi qanday ishlaydi; 3) nutqning shakllanishida o'ng va chap yarim sharlari qanday rol o'ynaydi; 4) miya ona tili bo'lmagan ma'lumotni qanday qabul qiladi; 5) lokal miya lezyonlari(shikastlanishlari) nutqqa qanday ta'sir qiladi degan savollarga javob izlay boshlandi.

Xulosa.Neyrolingvistikaning psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik bilan chambarchas bog'liqligi uni hozirgi kunda fan sifatida ahamiyatini yanada oshiradi. Bunga sabab esa shaxsning rivojlanishi, fikrlashi, tafakkur qilishi va neyronlarining holati, ularning nutq jarayonidagi o'zgarishi, yaxshilanishi dolzarb masala sifatida qaralib kelingan, shu o'rinda uning lingvistikaga chambarchas bog'liqligi o'z isbotini topayotganini ko'rishimiz mumkin. Nutq bu kommunikatsiya vosita bo'lgani tufayli u inson miyasi neyronlariga ham ta'sir eta olish bilan birgalikda uni o'zgartirish xususiyatiga ega. Buni nevrologik tadqiqotlarda ham ko'rishimiz mumkin. Fanda inson nutqi faoliyati miyaning ikkala yarim sharlari tomonidan muvofiqlashtirilishi allaqachon o'z isbotini topgan. Chap yarim shar nutqning to'g'riligi uchun, o'ngi es,a tasvir va hissiy rang berish uchun javobgar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Bobokalonov Ramazon Rajabovich. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 03 Issue: 05 | May-2023 ISSN: 2181-2624
2. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолінгвістика: язикова личність і харизматический человек (Теорія, практика і методика). Монографія, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN 978-620-6-15214-9
3. Файзиєв Я.М., Эшбоев Э.Х. Умумий ва тиббий психология, Тошкент, Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003.

РЕЗЮМЕ

Fanda inson nutqi faoliyati miyaning ikkala yarim sharlari tomonidan muvofiqlashtirilishi allaqachon o'z isbotini topgan. Chap yarim shar nutqning to'g'riligi uchun, o'ngi es,a tasvir va hissiy rang berish uchun javobgar hisoblanadi. Ushbu maqolada neyrolingvistika va uning fan sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Neyrolingvistikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ

Наукой уже доказано, что речевая деятельность человека координируется обоими полушариями мозга. Левое полушарие отвечает за правильность речи, а правое — за образы и эмоциональную окраску. В статье рассматривается нейролингвистика и ее значение как науки. Обоснована связь нейролингвистики с другими науками.

SUMMARY

It has already been proven in science that the activity of human speech is coordinated by both hemispheres of the brain. The left hemisphere is responsible for the correctness of speech, and the right hemisphere is responsible for providing images and emotional color. This article covers neurolinguistics and its importance as a science. The connection of neurolinguistics with other sciences is justified.